



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Muhayyo G'ulomovna Muminjonova

*Jizzax viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari"
kafedrasini, katta o'qituvchi*

DARS MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANILADIGAN TARBIYAVIY METODLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya metodlari haqida umumiy tushuncha, xalqimizning tarbiyaviy ishlarda qo'llaydigan metodlari, ularning turlari, sinf rahbari faoliyatida metodlardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, jazo, rag'batlantirish, ta'lim, tarbiya, ota-ona, oila, maktab, o'qituvchi, o'quvchi.

Резюме

В данной статье речь идет о воспитании, в которой изучаются сущность понятия воспитания и методы, применяемые нашим народом в воспитательной работе. Также приводятся сведения о видах воспитания, использовании методов воспитания в деятельности классного руководителя.

Ключевые слова: Умственное воспитание, нравственное воспитание, физическое воспитание, наказание, поощрение, воспитание, воспитание, воспитание детей, родителя, семья, школа, учитель, ученик.

METHODS USED IN EDUCATIONAL WORK

Mukhayo Gulomovna Muminjonova
Jizzakh regional center for retraining and



advanced training of public educators
"Pedagogy and psychology, educational technologies"
department, head teacher.

Abstract

This article is about education, which examines the essence of the concept of education and the methods used by our people in educational work. It also provides information about the types of education, the use of educational methods in the activities of the class teacher.

Keywords: Mental education, moral education, physical education, punishment, encouragement, education, upbringing, upbringing of children, parent, family, school, teacher, student.

“Tarbiya qancha mukammal bo’lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”- deydi donishmandlar.
Tarbiya mukammal bo’lishi uchun esa bu masalada bo’shliq paydo bo’lishiga mutlaqo yo’l qo’yib bo’lmaydi.
Sh. Mirziyoyev

Tarbiya masalasi hamma davrlarda ham o’ziga xos dolzarbligi bilan ahamiyatli bo’lgan. Chunki bugun unib-o’sib kelayotgan avlod istiqboldagi taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu nuqta-nazardan yosh avlodni voyaga etkazishda tarbiya masalasi har doimgidek dolzarb bo’lib qolaveradi.

Tarbiya keng ma’nodagi yoshlarni, insonlarni ob’ektiv va sy’ektiv ta’sirlar orasida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir. Bola o’qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg’ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilish kerak. Shu bilan birga bola o’zini o’zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmash kerak. O’quvchilar yaqin kishilarining munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik o’tkazishga ochiq va moyil bo’ladi. O’qituvchi - do’st, murabbiy, yo’lboshlovchi bo’lgandagina o’quvchilar o’zlarining ichki olamlarini ochib ko’rsatadilar.

Tarbiya - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o’z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar - bilim va tarbiyaga ega bo’lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o’rganuvchi yoshlardir.

Demak, tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o’zoro ta’sir ko’rsatish usullaridir. Ta’lim usullari singari tarbiya usullari ham alohida qismlarga bo’linadi. Masalan, o’qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun uyushtirmoqda. Bolalarga ish bo’lib berishdan avval u lattani qanday qilib ho’llash, partalarni va polni qanday qilib artish haqida gapirib, ko’rsatib beradi. O’qituvchining so’zi bu yerda uslub hisoblanadi. Usui va uslub bir-biri bilan o’zoro bog’langan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko’ra bir-biriga o’tib turishi kerak.



O`qituvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tadhkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan: sinf majlisi, yig`ilishlar, ertalabki yig`in, tugarak ishlari va boshqalar.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o`qituvchi yakka o`quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo`lida biron - bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta`sir etish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi. Tarbiya g`oyatda murakkab jarayon bo`lib, har davrning ijtimoiy - siyosiy hayotini o`zida aks ettiradi. Uning usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib, o`zini oqlagan urf- odatlar an`anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o`z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi tarbiya vositalari bo`ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasi o`zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o`zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo`lib, ko`p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o`z ta`sirini o`tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo`llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Tushuntirish (o`rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Nanuna (maslahat berish, uzr so`rash, yaxshiliklar haqida do`zlash, o`rnak bo`lish).
3. Nasihat berish, o`git (undash, ko`ndirish iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma`qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo`l tilash va hokazolar).
4. Qoralash va jazo (ta`qiqlash, ta`na , gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo`rqitish, nafratlanish, ont - qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar). Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to`it xil usul umumiy bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasini o`taydi, ya`ni yoshlarni mustaqil kuzatuvchanligiga e`tibor beradi. Unda ham tushunmaganlar v kattalarning nasihat va o`gitlari orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga yetadigan bo`lishadi. Bordi-yu, bunda ham bolalar tushunmasa yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazo usullaridan foydalanishga to`g`ri kelgan. Lekin bu so`ngi chora ekanini xalq yaxshi tushunadi. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so`nggi chora, aniqrog`i, kam samara beradigan chora ekanini isbotlagan.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar guruhiga o`quvchilarda ilmiy dunyoarash, e`tiqodni, ma`naviy va siyosiy g`oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta`sir ko`rastirish usullari kiradi.

O`quvchi shaxsini g`oyaviy va axloqiy shakllantirishda o`qituvchining jonli so`zi eng ta`sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg`otishning suhbat mazmuniga bo`lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.



O`quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to`liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san`at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniye, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo`ladi. Suhbat ham, hikoya ham o`quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so`zlar orqali o`zbek tilida o`tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o`quvchilarning o`zlari tanlashsin, bunda suhbatning zavqi - shundan - ta`minlanadi, o`quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

O`quvchilar o`z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko`rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir.

Bola rivojlanishining, o`zligini bilishining asosiy omili - bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida ta`lim-tarbiyajarayonlariga singib ketadi.

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O`qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O`quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki, ular bilan muntazam muloqot tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qiladi. Oxir-oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq muayyan hatti-harakatlarni ko`p marotaba takrorlashni o`z ichiga oladi. Mashq va odatlanish o`quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko`nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o`quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi ortib boradi. Odatsiz tarbiya - poydevorsiz binoga o`xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o`zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o`rgatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog`liq o`z istak va harakatlarini boshqarish, ish va bo`sh vaqtdan to`g`ri foydalanish odatiga o`rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko`nikmalarni hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq o`quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo`lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tarbiyalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O`quvchilar o`z kuchlarini umum ishga sarflashga, jamoa uchun mas`uliyatni his etishga o`rganadilar. Mehnat qilish bolaning xarakterini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - by o`quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo`lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo`lishi; turli ko`rsatma sifatida namoyon bo`lishi; turli ko`rsatma sifatida namoyon bo`lishi, u yoki bu harakatda rag`batlantiruvchi yoki uni to`xtatuvchi bo`lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo`lishi mumkin.



O`quvchida o`z-o`zini tarbiyalashga, ya`ni o`z ustida ongli, batartib ishlashga extiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo`ladi. O`quvchilarni, ayniqsa, o`rta va katta yoshdagilarni o`z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo`llash kerak. Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o`zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini his etishlariga yordam beradi.

O`z-o`zini tahlil qilish, o`z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, hatti-harakatli haqida o`ylashga o`rgatadi. O`z-o`zini baholash, o`quvchining faoliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z-o`zini baholash qiyin, lekin o`quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o`quvchi irodali bo`lishi, o`z burchlarini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo`ilshi, ya`ni tahsil va tarbiyalanishni xohlashi, o`zini o`rtoqlarining, yaqin kishilarining ko`zi bilan ko`rishi va o`z-o`zini takomillashtirishga uilishi lozim.

O`z-o`zini baholash o`quvchi uchun o`zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o`ziga chetdan turib xolisona baho berish, o`zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Tarbiyaviy vosita ancha keng tushuncha bo`lib, har qanday tarbiyaviy vazifani hal qilish uchun qo`llanilayotgan usuliy yo`lning muvaffaqiyatli chiqishiga ko`maklashadi.

Mohir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta`sir etishda uning yoshi va shaxsiy xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi o`zi bilan bola o`rtasida vujudga kelgan munosabat, o`quvchi intilishlarining o`ziga xosligi, faoliyatda qatnashishdan bolaning ko`zlagan maqsadini hisobga olib, bolaga ta`sir etishning muvaffaqiyatini ta`minlaydigan usulni to`g`ri tanlay oladi.

O`qituvchi sinfda, o`quvchilar jamoasida bo`lgan vaqtlarda quyidagi metod ya`ni usullardan foydalanishi mumkun: ibrat - namuna usuli, ishontirish , tushuntirish , uqtirish , rag`batlantirish va iazolash.

Bolalar tarbiyasida ibrat — namunaning o`rni kattadir. Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir. Shuning uchun o`qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning o`zlari hammadan oldin bolaga namuna bo`lmoqlari, o`zlarida eng yaxshi fazilatlarini aks ettirmoqliklari lozim.

Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi xitoblari o`rinlidir. “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o`g`il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim. Mana, ulug` ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo`lishi, baxtli bo`lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo`lishi yoki zaif bo`lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e`tibordan qolib, o`zgalarga tobe va qul, asir bo`lishi ularning o`z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog`liq».

Demak, jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog`lom, intellektual salohiyatli, bir so`z bilan aytganda ma`naviy-kasbiy barkamol mutaxassislarni tayyorlash davr talabi ekan. Bu ishni



amalga oshirish esa barchamizning vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Shunday ekan, yoshlarimiz tarbiyasiga doimo e'tiborli bo'laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so'zi» gazetasi. 2017 yil 1 iyul.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taqaqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T.“O'zbekiston”, 2017, 124-bet.

3.Hamrayev Sh.Tarbiyaviy ishlar. Ma`ruzalar matni. Qarshi, Nasaf 2006.

4. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent, 2003.